

ALISHER AZIZXO'JAYEVNING IBRATLI HAYOT YO'LI VA ILMIY-MADANIY MEROSI

Urunboyev Jo'rabek Kodir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti 1-kurs talabasi

El.pochta: urunboyevjorabek5@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19854734>

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada yuridik fanlari doktori, professor Alisher Azizxo'jayev Abbosovichning ibratli hayot yo'li, biografiyasi, ilmiy-madaniy merosi tahlil qilinadi. Shuningdek, Alisher Azizxo'jayevning O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni isloh qilish, ta'lim tizimida olib borgan ishlari, davlat va jamiyat boshqaruvida ko'rsatgan jonbozliklari, mas'ul davlat boshqaruv organlarida ishlagan davrida yuritgan siyosati, yosh avlodning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun ishlab chiqqan asarlari, ilmiy izlanishlari orqali o'zining ilmiy maktabiga asos solganligi va hozirgi kunda Alisher Azizxo'jayevning xotirasini abadiylashtirish maqsadida Toshkent davlat yuridik universiteti rahbariyati tomonidan amalga oshirilayotgan yangiliklar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: yuridik ta'lim, davlat boshqaruvi, jamiyat qurilishi, huquq ijodkorligi, ilmiy maktab, ilmiy-nazariy asoslar, nazariya va amaliyot uyg'unligi

ПОУЧИТЕЛЬНЫЙ ЖИЗНЕННЫЙ ПУТЬ И НАУЧНО-КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ АЛИШЕРА АЗИЗХОДЖАЕВА

Урунбоев Журабек Кодир угли

Ташкентский государственный юридический университет

Студент 1-го курса факультета публичного права

E-mail: urunboyevjorabek5@gmail.com

Аннотация. В данной научной статье анализируется поучительный жизненный путь, биография, а также научно-культурное наследие доктора юридических наук, профессора Алишера Аббосовича Азизходжаева. Также освещаются реформы в сфере науки, проведенные Алишером Азизходжаевым в Республике Узбекистан, его деятельность в системе образования, самоотверженность в вопросах государственного и общественного управления. Рассматривается политика, проводимая им в период работы в ответственных органах государственного управления, его труды, направленные на повышение правового сознания и правовой культуры молодого поколения, а также создание собственной научной школы через фундаментальные исследования. Кроме того, излагаются нововведения, осуществляемые руководством Ташкентского государственного юридического университета в настоящее время с целью увековечивания памяти Алишера Азизходжаева.

Ключевые слова: юридическое образование, государственное управление, государственное строительство, правотворчество, научная школа, научно-теоретические основы, гармония теории и практики.

THE EXEMPLARY LIFE PATH AND SCIENTIFIC-CULTURAL HERITAGE OF ALISHER AZIZKHODJAYEV

Urunboyev Jurabek Kodir ugli

Tashkent State University of Law

1st-year Student, Faculty of Public Law

Email: urunboyevjurabek5@gmail.com

Abstract. This scientific article analyzes the exemplary life path, biography, and scientific-cultural heritage of Doctor of Law, Professor Alisher Abbosovich Azizkhodjayev. It highlights his contributions to reforming science and education in the Republic of Uzbekistan, his dedication to state and social governance, and the policies he implemented while serving in senior government positions. Furthermore, the article examines his works aimed at enhancing the legal consciousness and legal culture of the younger generation, his establishment of a distinct scientific school through extensive research, and the recent initiatives undertaken by the leadership of Tashkent State University of Law to immortalize the memory of Alisher Azizkhodjayev.

Keywords: legal education, public administration, state-building, law-making, scientific school, scientific-theoretical foundations, harmony of theory and practice

Mamlakatimizda huquqshunoslik sohasining rivojlanishiga hissa qo'shgan buyuk shaxslar, olimlar, davlat va jamaot namoyondalari juda ko'p topiladi. Misol uchun, Halimboy Boboyev, Mirzayusuf Rustamboyev, Xojimurod Odilqoriyev, Hojiakbar Rahmonqulovlar. Ammo ushbu olimlar ichida faxriy professor Alisher Abbosovich Azizxo'jayevning o'rni beqiyos hisoblanadi. Alisher Azizxo'jayev Abbosovich 1953-yilda O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyatining Rishton tumanida tavallud topgan.¹ Alisher Azizxo'jayev bolaligidanoq otasi Abbosxo'jaga havas qilgan holda yuridik sohaga qiziqishi boshlanadi. U o'z faoliyatining asosiga adolat, tenglik va insonparvarlik singari g'oyalarni qo'yadi. Aynan Abbosxo'ja ota Farg'onadagi huquqni muhofaza qilish organlarida mas'ul rahbar lavozimlarda, shuningdek, Yunusobod tuman sudi raisi sifatida ishlab, mehnat qilganligi ham bo'lajak yurist, yuridik fanlari doktori, professorning huquq sohasiga mehr qo'yishiga tom ma'noda sabab bo'ladi. Alisher Azizxo'jayevning onasi esa Muhabbat aya bo'lgan². Alisher Abbosovichning aka-uka va opa-singillari shaxsiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, akasi-Avazxo'ja, Opasi-Muhayyo, Singlisi-Muyassar, ukalari-Marat va Bosit. Alisher Abbosovichning turmush o'rtoqlari esa Mavjuda Anvarovna. Farzandlari esa Sherzodxo'ja va Sarvarxo'ja, Hilola va Adiba.³ Endi bevosita Alisher Azizxo'jayevning hayotiga o'tadigan bo'lsak, u maktabni a'lo baholarga tamomlab, yurtimizdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Lenin nomidagi Toshkent davlat universitetining yuridik fakultetiga o'qishga kirib 1975-yilda tamomlaydi.⁴ Toshkent davlat universiteti hozir Toshkent davlat yuridik universiteti etib, qayta nomlangan va hali-hanuz

¹ FAXRIY PROFESSOR ALISHER AZIZXO'JAYEVNING ILM-FAN RIVOJI, HUQUQIY DAVLAT BARPO ETISHDAGI HARAKATLARI, IBRATLI HAYOT YO'LI VA ILMIY-MADANIY MEROSI . (2025). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 69(7), 259-266. <https://scientific-jl.com/obr/article/view/14868>

² https://t.me/azizxojayev_alisher_merosi

³ https://t.me/azizxojayev_alisher_merosi

⁴ FAXRIY PROFESSOR ALISHER AZIZXO'JAYEVNING ILM-FAN RIVOJI, HUQUQIY DAVLAT BARPO ETISHDAGI HARAKATLARI, IBRATLI HAYOT YO'LI VA ILMIY-MADANIY MEROSI . (2025). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 69(7), 259-266. <https://scientific-jl.com/obr/article/view/14868>

o'zining yuridik sohada kadrlar tayyorlash bo'yicha nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda ham yetakchi ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim tashkiloti ekanligini ham saqlab kelmoqda. Alisher Azizxo'jayev oliy ta'limning bakalavriat bosqichini tamomlagach, faqat amaliyot bilan emas, balki ilm-fan bilan shug'ullanishni ham davom ettiradi. Ushbu gapga amaliy misol sifatida Alisher Azizxo'jayevning aspirantura, nomzodlik-doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilganligi va ilmiy daraja, unvon olgandan so'ng o'zi o'qigan oliygohning yuridik fakultetida huquqshunoslik fani o'qituvchisi bo'lib ishlab, adolat va insonparvarlik g'oyalarini yosh avlodning ong-u shuriga singdirishda muhim rol o'ynaydi. Professor Alisher Azizxo'jayev ilmiy sohada sermahsul mehnat qilgan shaxs sifatida yosh huquqshunoslar uchun 100 dan ortiq ilmiy ishlarini meros qilib qoldirganligi bilan ham alohida e'tirof etiladi. Xususan, “Davlatchilik va ma'naviyat. (tajriba, siyosiy tahlil)”; “Mustaqillik:kurashlar, iztiroblar, quvonchlar”; ‘Chin o'zbek ishi’; “Mafkura poligonlaridagi olishuv” monografiyalari nafaqat yosh avlodning huquqiy dunyoqarashi, balki siyosiy tafakkurini oshishiga ham dasturiy hisoblanadi. Shu bilan birga Alisher Abbosovich 2008-yilda chop etilgan “O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharhlar” kitobining ham mas'ul muharriri sifatida asosiy qonun bo'lmish Konstitutsiyasining har bir moddasi, moddalar ichidagi har bir normaning mazmun-mohiyati, ularning amaliy ifodasi, ularning jamiyat hayotining turli sohalarida qanday qo'llash kerakligi va zaruratini ushbu kitobda tushuntirib berganlar. Alisher Azizxo'jayev Konstitutsiyaviy huquq, Inson huquqlari, Huquq ijodkorligi, Davlat boshqaruvi sohalarida kuchli ilmiy maktab shakllantira olgan olimdir. Misol uchun, aynan Alisher Azizxo'jayev Konstitutsiyaviy huquq sohasida yetakchi mutaxassis bo'lgani bois D.K.Axmedovning “O'zbekistonda davlat ijtimoiy himoyasi: huquqiy asoslari va takomillashtirish muammolari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida ilmiy rahbar bo'lgan.⁵ Alisher Abbosovich faqat shu bilan kifoyalanmay, balki uning ilmiy rahbarligida 6 nafar fan nomzodi, 3 nafar fan doktori yetishib chiqqaligi ham uning ilm-fan sohasida boy tajriba egaligini tasdiqlaydi. Biz yuqorida Alisher Azizxo'jayevning ilmiy faoliyatini batafsil tahlil qildik. Endi esa Alisher Abbosovichning davlat va jamiyat qurilishi, uning rivojiga qo'shgan hissasini muhokama qilamiz. Alisher Azizxo'jayev mustaqilikning dastlabki yillaridan siyosatda o'zini o'rniga ega bo'lish uchun harakat qilgan. Xususan, birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov bilan birgalikda davlat siyosatini shakllantirishda jonbozlik ko'rsatganligi ko'plab siyosatchilar va davlat boshqaruvi kadrlari tomonidan ta'kidlanadi. Misol uchun, Alisher Azizxo'jayev 1992-1994 yillar oralig'ida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlatlar va millatlararo munosabatlar bo'yicha davlat maslahatchisi sifatida faoliyat ko'rsatgan⁶. Aynan, ushbu davrda Alisher Azizxo'jayevning sa'y-harakatlari bilan boshqa davlatlar bilan aloqalarimiz barqarorlashdi. Bu boradagi ko'plab hal etilmagan muammolarga yechim topildi. Shu bilan birga, 1994-1996 yillarda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Fan, ta'lim va ijtimoiy masalalar bo'yicha davlat maslahatchisi lavozimlarida faoliyat yuritgan.⁷ Alisher Azizxo'jayev ushbu mas'ul lavozimda ishlagan davrida O'zbekistonda ilm-fanga bo'lgan e'tibor juda ortdi. O'zi olim

⁵ https://t.me/azizxojayev_alisher_merosi

⁶FAXRIY PROFESSOR ALISHER AZIZXO'JAYEVNING ILM-FAN RIVOJI, HUQUQIY DAVLAT BARPO ETISHDAGI HARAQATLARI, IBRATLI HAYOT YO'LI VA ILMIY-MADANIY MEROSI . (2025). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 69(7), 259-266. <https://scientific-jl.com/obr/article/view/14868>

⁷FAXRIY PROFESSOR ALISHER AZIZXO'JAYEVNING ILM-FAN RIVOJI, HUQUQIY DAVLAT BARPO ETISHDAGI HARAQATLARI, IBRATLI HAYOT YO'LI VA ILMIY-MADANIY MEROSI . (2025). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 69(7), 259-266. <https://scientific-jl.com/obr/article/view/14868>

bo'lganligi bois olimlarni, ilm-fan sohasida jonbozlik ko'rsatayotgan shaxslar ulug'landi. 1996-1998 yillarda esa ijro etuvchi hokimiyatda, ya'ni Vazirlar Mahkamasida Bosh vazir o'rinbosari bo'lib, madaniyat va ta'lim ishlarini nazorat qilish bilan shug'ullangan. Alisher Azizxo'jayev bir vaqtning o'zida 1998-yil 21-apreldan boshlab, diniy oqim va guruhlar faoliyati qonuniyligini o'rganish bo'yicha Muassasalararo hay'ati a'zosi bo'lib faoliyat yuritgan.⁸ Aynan shu yillarda Alisher Azizxo'jayevning mehnati sababli O'zbekistonda noqonuniy faoliyat yuritgan guruhlar faoliyati tugatildi. 1998-yil 10-iyuldan boshlab Alisher Azizxo'jayev Axborot faoliyati va ma'lumotlarni uzatish samaradorligini oshirish komissiyasi rais o'rinbosari sifatida ishlagan paytlarida yurtimizda axborot siyosati takomillashdi. Xususan, davlat organlarining faoliyatida axborot xavfsizligi, fuqarolarni ularga taalluqli zarur axborot bilan ta'minlash ishlari jadal rivojlandi. Umuman olganda axborot erkinligi yetarli darajada ta'minlandi. Bundan tashqari, Alisher Azizxo'jayev 1999-2003 yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi rektori lavozimida ishlagan paytlari nafaqat o'zining boshqaruv sohasida tajribali ekanligini, balki ilm-fan sohasida ham ilmiy-nazariy bilimlari yetarliligini amalda isbotlab bera olgan shaxsdir. Aynan Alisher Azizxo'jayev Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida rektor lavozimida ishlagan paytlari davlat boshqaruv organlariga malakali kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilinib, bu borada yangi tizim shaklandi. Alisher Azizxo'jayev ushbu akademiyada davlat xizmatchilarini tayyorlash tizimini xalqaro andozalarga moslab, jahondagi rivojlangan davlatlarning boy tajribasini O'zbekistonga tatbiq eta oldi. 2003-yil 7-oktabr- O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining madaniyat ishlari bo'yicha o'rinbosari; Ma'anaviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha bo'yicha Respublika kengashi raisi, 2004-yil 4-oktabrda esa, Madaniyat va sport ishlari vaziri lavozimlarida faoliyat yuritgan.⁹ Aynan ushbu davrda Alisher Azizxo'jayevning tashabbusi bilan yurtimizda madaniyat muassasalari, xususan, teatr, adabiyot, xalq ijodiga alohida e'tibor qaratildi. Yangi teatrlar va madaniyat muassasalari qurildi. Ta'mirga muhtoj madaniyat muassasalari esa qaytdan jihozlandi, rekonstruksiya qilindi. 2006-yil 6-iyuldan 2007-yil noyabrga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot kotibi sifatida faoliyat ko'rsatgan¹⁰. Shundan so'ng, 2007-yil noyabrdan boshlab, Toshkent davlat yuridik institutidkafedra mudiri bo'lgan. Alisher Azizxo'jayev kafedra mudiri lavozimida ishlagan davrida uning bo'ysunivida bo'lgan barcha professor-o'qituvchilarning kasbiy (professional) va ilmiy rivojlanishi uchun zarur amaliy choralar ko'rgan rahbar sifatida tanilgan. Aynan Alisher Azizxo'jayevning sa'y-harakatlari natijasida uning Prezident matbuot kotibi bo'lgan paytida jamoatchilikka tezkor, ishonchli axborot yetkazib berish va amaldagi islohotlar, xususan, Prezident chiqargan normativ va normativ xususiyatga ega bo'lmagan hujjatlarning mazmun-mohiyatini, dolzarbligini jamoatchilikka yetkazib berish tizimi ishga tushdi. Alisher Azizxo'jayev O'zbekiston Respublikasi milliy kurash federatsiyasi prezidenti sifatida ham faoliyat yuritadi. Ayni shu

⁸ FAXRIY PROFESSOR ALISHER AZIZXO'JAYEVNING ILM-FAN RIVOJI, HUQUQIY DAVLAT BARPO ETISHDAGI HARAKATLARI, IBRATLI HAYOT YO'LI VA ILMIY-MADANIY MEROSI . (2025). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 69(7), 259-266. <https://scientific-jl.com/obr/article/view/14868>

⁹ FAXRIY PROFESSOR ALISHER AZIZXO'JAYEVNING ILM-FAN RIVOJI, HUQUQIY DAVLAT BARPO ETISHDAGI HARAKATLARI, IBRATLI HAYOT YO'LI VA ILMIY-MADANIY MEROSI . (2025). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 69(7), 259-266. <https://scientific-jl.com/obr/article/view/14868>

¹⁰FAXRIY PROFESSOR ALISHER AZIZXO'JAYEVNING ILM-FAN RIVOJI, HUQUQIY DAVLAT BARPO ETISHDAGI HARAKATLARI, IBRATLI HAYOT YO'LI VA ILMIY-MADANIY MEROSI . (2025). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 69(7), 259-266. <https://scientific-jl.com/obr/article/view/14868>

davrda o'zbek milliy sport turiga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasigacha ko'tariladi. Chunki Alisher Azizxo'jayev o'zbek milliy sport turini nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro hamjamiyatda ham keng tanilishi uchun tashkiliy-amaliy ishlar qilgan shaxs hisoblanadi. Biroq taqdir taqazosi bilan Alisher Azizxo'jayev 2012-yil 9-yanvarda 58 yoshida saraton kasalligidan vafot etgan.¹¹

Bugungi kunga kelib, Alisher Azizxo'jayevning xotirasiga bag'ishlab, turli konferensiyalar tashkil etilmoqda. Xususan, 2025-yilda Toshkent davlat yuridik universitetida “Yangi O'zbekistonda konstitutsiyaviy huquq fanining dolzarb muammolari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.¹² Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq kafedrasida tashabbusi bilan yuridik fanlari doktori, professor Alisher Azizxo'jayev xotirasiga bag'ishlangan ushbu nufuzli olimning ilmiy merosini e'zozlash va konstitutsiyaviy huquq sohasidagi muammolarni muhokama qilish maqsadida tashkil etildi.¹³ Aynan ushbu xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasining dolzarbligi shundaki, ushbu konferensiyada Alisher Azizxo'jayev xotirasiga bag'ishlab, maxsus o'quv xonasi ochildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5987 son farmoniga muvofiq Toshkent davlat yuridik universiteti rektori buyrug'i bilan Toshkent davlat yuridik universiteti talabalari uchun yuridik ta'lim rivojiga ulkan hissa qo'shgan faxriy professor-o'qituvchilar nomiga atab nomli stipendiyalarni joriy etish tartibi belgilangan.¹⁴ Mazkur buyruqqa muvofiq Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti talabalari ushbu Alisher Azizxo'jayev nomidagi stipendiyani yutishlari mumkin. Aynan ushbu nomlo stipendiyaning ahamiyati shundaki, Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti talabalari ijtimoiy tarmoqlarda faxriy professor Alisher Azizxo'jayev Abbosovich nomiga atab, maxsus kanal ochib, uni yuritishi lozim. Shuningdek, ta'lim muassasalarida esa asosan maktab o'quvchilariga Alisher Azizxo'jayevning ibratli hayot yo'li va ilmiy merosini targ'ib qilishlari kerakligi ham professorning xotirasi uchun hurmat va e'tibor demakdir.

Umumiy xulosa qiladigan bo'lsak, Alisher Azizxo'jayev Abbosovich O'zbekistonda huquqshunoslik sohasida o'zining ilmiy maktabini qura olgan, ko'plab shogirdlariga ilmiy rahbar bo'lib, O'zbekistonda ilm-fan rivojiga hissa qo'shgan buyuk olimlardan biri hisoblanadi. Alisher Azizxo'jayev nazariya va amliyot uyg'unligini o'zida jamlay olgan shaxs sifatida ham alohida e'tirof etiladi. Ilm-fan, siyosat va davlat boshqaruvida bir vaqtning o'zida samarali mehnat qilganligi, davlat boshqaruvini yangi bosqichga olib chiqqanligi ham barchamizga ma'lum. Huquq va boshqaruv sohasida ko'rsatgan jonbozliklari uchun Alisher Azizxo'jayev “Mehnat shuhrati” ordeni bilan mukofotlanishi ham uning qilgan mehnatlari besamar ketmaganligidan, uning qilgan buyuk ishlari davlat va jamiyat tomonidan hali-hanuz ardoqlanishini anglatadi.

¹¹ FAXRIY PROFESSOR ALISHER AZIZXO'JAYEVNING ILM-FAN RIVOJI, HUQUQIY DAVLAT BARPO ETISHDAGI HARAKATLARI, IBRATLI HAYOT YO'LI VA ILMIY-MADANIY MEROSI . (2025). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 69(7), 259-266. <https://scientific-jl.com/obr/article/view/14868>

¹² FAXRIY PROFESSOR ALISHER AZIZXO'JAYEVNING ILM-FAN RIVOJI, HUQUQIY DAVLAT BARPO ETISHDAGI HARAKATLARI, IBRATLI HAYOT YO'LI VA ILMIY-MADANIY MEROSI . (2025). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 69(7), 259-266. <https://scientific-jl.com/obr/article/view/14868>

¹³ Toshkent davlat universiteti yangiliklari, 2025yil manba.

¹⁴ https://t.me/azizxojayev_alisher_merosi

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. FAXRIY PROFESSOR ALISHER AZIZXO‘JAYEVNING ILM-FAN RIVOJI, HUQUQIY DAVLAT BARPO ETISHDAGI HARAKATLARI, IBRATLI HAYOT YO‘LI VA ILMIY-MADANIY MEROSI . (2025). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 69(7), 259-266. <https://scientific-jl.com/obr/article/view/14868>
2. https://t.me/azizxojayev_alisher_merosi
3. <https://akademiklar.uz/azizxojayev-alisher>
4. <https://inlibrary.uz/index.php/ustozlar/article/view/896594>
5. Toshkent davlat yuridik universiteti yangiliklari, 2025yil manba